

BOLALARDA QOBILIYATLAR PSIXOLOGIYASI

ПСИХОЛОГИЯ СПОСОБНОСТЕЙ У ДЕТЕЙ

PSYCHOLOGY OF ABILITIES IN CHILDREN

*Esemuratova Gulbanu Sultanbek qizi**Qoraqolpoq Davlat Universiteti**Amaliy psixologiya 4-kurs talabasi.**esemuratovagulbanu@gmail.com**+998934861835**Turdimuratova Sofiya Baxtiyar qizi**Qoraqalpoq Davlat Universiteti**Amaliy Psixologiya 2-kurs talabasi**sofyaturdimuratova@gmail.com**+998979689699**Esbosinova Sarbinaz Muratbaevna**Qoraqalpoq Davlat Universiteti**Amaliy Psixologiya 2-kurs talabasi**sarbinazesbosinova@gmail.com**+998937079963*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qobiliyat tasnifi, qobiliyat turlari, akemalogiya, qobiliyatning rivojlanishi, qobiliyatning irsiy rivojlanishi, qobiliyatning sifat va miqdor xarakteristikasi haqida malumotlar keltirildi.

Аннотация: В статье представлена информация о классификации способностей, типах способностей, акемалогии, развитии способностей, генетическом развитии способностей, качественных и количественных характеристиках способностей.

Annotation: This article provides information about the classification of ability, types of ability, akemalogy, development of ability, genetic development of ability, qualitative and quantitative characteristics of ability.

Kalit so'zlar: qobilyat, iste'dod, talant, daxolik, akemalogiya, diqqat, iroda .

Ключевые слова: способность, талант, талант, гениальность, акемалогия, внимание, воля.

Key words: ability, talent, talent, genius, akemalogy, attention, will.

Qobiliyatlar muammosi psixologiya fanida qiziqarli va malum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Bu muammo yuzasidan qadimdan to shu kunga qadar olimlar izlanishlar olib borganlar . Insonning imkoniyatlarini organishda Sharq mutafakkirlari (*Farobiy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino*), Rossiya psixologlari (*V.M.Teplov, V.G.Ananov, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, A.G.Kovalev, V.N.Myasishev*), G'arb olimlari (*A.Bine, T.Simon, F.Galton, V.Shtern, G.Olport*,

K.Rodjers) kabilar katta xissa qo'shganlar. Ushbu muammo ustida O'zbekiston psixolog olimlari (*E.G'oziev, R.Gaynutdinov, M.G.Davletshin B.R.Qodirov, V.A.Tokarova* va boshqalar) ham izlanisholib borganlar . [2]

Ko'pincha biz bir xil yoki deyarli bir xil sharoitda bo'lgan odamlar nima uchun turli xil muvaffaqiyatlarga erishishlarini tushintirishga harakat qilganda , biz qobiliyat tushinchasiga murojat qilamiz va odamlar muvaffaqiyatlaridagi farqni aynan shu bilan izohlash mumkin deb o'ylaymiz . Huddi shu tushincha bazi kishilarning bilimlarini tez o'zlashtirishi yoki konikmani qiyin qabul qilish sabablarini o'rganayotganda ham qollaniladi . [1]

Kishilar turli sohadagi faoliyatlarida – mehnat , oyin, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-biridan farq qiladilar. Bazi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, biror kishi tezlik bilan bajaradi. Ayirim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa boshqalariniki esa kamunum bo'ladi . Bazi odamlar o'z ishlarida ijodiy original usullarni qo'llasa, bazi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko'rinadi . Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz. [3]

Kishilar qobiliyati nihoyatta xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi . Kishi faoliyatining har hil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarini, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xojalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo'ladi. Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir – har qaysi odam ma'lum darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo'ladi. Lekin, shu bilan bir qatorda, ko'pchilik faoliyatining bir necha sohasidan yoki hatto bir sohasida salohiyat ortiqroq bo'ladi.

Faoliyatning biror turi sohasida qobiliyatning paydo bo'lish darajasi muayyan kishining individual xususiyati bilan xarakterlanadi. Qobiliyatning bunday xususiyatlari maktab bolalarida ham ko'rinadi . Bazi bir o'quvchilar o'zlarining zehni o'tkirligi bilan, boshqalari poetik asarlarni idrok qilishliklari bilan, uchinchi esa texnik ijodkorligi bilan, to'rtinchisi esa o'zining laboratoriya mashg'ulotlariga usta bo'lishi va hokazolar bilan ajralib turadi. [3]

Insonni yetuklik davrida yuqori darajadagi rivojlanishi bilan psixologiyaning maxsus fani akemalogiya shug'illanadi¹. Qobiliyatning o'sishida muayyan faoliyatga qiziqish va muhabbat qo'yish bilan bir qatorda kishi o'z ustida ishlashi, uning mehnat faoliyati hamda bilimlari, ko'nikma va malakalarini ijodiy ravishda qo'llay olishi ham katta ahamiyatga egadir .

Ayirim kishilar bolalik va o'quvchilik chog'larida ular uchun qulay sharoit bo'lishiga qaramay, hech qanday o'z zehni va qobiliyatlarini ko'rsata olmaganliklari mal'umdur . Bunday kishilar keyinchalik sabot va chidam bilan o'z ustlarida mustaqil ishlashlari natijasida o'zlarining zo'r qobiliyatga ega ekanliklarini ko'rsatganlar.

Qobiliyat va iste'dodta aql intellekt ham, yani idrok va kuzatuvchanligining, tafakkur, xayol, nutq va xotiraning qanchalik o'sganligi ham ko'rinadi. Aql faoliyati diqqat va iroda bilan bog'liq bo'lgani uchun qobiliyat va iste'dod diqqat va irodaning qanchalik kuchli va barqarorligida ham ko'rinadi. Kishining qanchalik kuzatuvchan ekanligi, bilimlarni qanday o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni qanday hal qilishi, qanday qimmatli yangilikarni yaratishi, o'z bilim va malakalarini turmushga qanday tadbiiq qila bilishidan ham, kishining qobiliyat va iste'dodini bilish mumkin.

Kishining qobiliyat va iste'dodi mehnatda namoyon bo'ladi, shu bilan birga kishi qobiliyatining o'zi ham faqat sabot bilan mehnat qilish, tirishib tegishli bilim va malaka hosil qilish orqali kamol topadi. [3]

Odamlarning qobiliyatlarida tug'ma xususiyat ham namoyon bo'ladi. Psixologiya fani differensial qobiliyatlarning tug'ma bo'lishini in'kor etmagan. Qobiliyatlarning rivojlanishiga tabiiy zamin bo'luvchi hatti harakat, his qilish organlari va miya tuzilishidagi bir morfologik va funktsional xususiyatlar layoqat deb ataladi.

Qobiliyatning irsiy asoslari bo'yicha fanda turli qarashlar mavjud. Avstraliyalik olim *F.Gall* (1758-1828) *miya va alohida qobiliyatlar orasida bog'liqlik bor* degan farazni ilgari suradi. Qachonlardir bu faraz juda mashhur edi. U qobiliyatlarni miya bilan bog'lagan edi. Lekin, hali ham miya og'irligi va qobiliyatlar orasida bog'liqlik bor degan fikrlar mavjud. *Katta peshonali kishilarni aqilli, aql-farosatli, muammolarni tez hal qiluvchi bo'ladi degan fikirlarga hali ham duch kelamiz va aksincha peshonasi tor bo'lgan kishilarga nisbatan esa qarama-qarshi fikrlar bildiriladi.* Albatta, bu fikrlar o'z tastig'ini topmagan. Inson miyasining og'irligi va qobiliyatlar o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi fikrlar ham tasdiqlangan emas. Malumki katta kishi miyasi **1400 g** og'irlikka ega. Shu jumladan I.S.Turgenovning miya og'irligi 2012 g, D.Bayronniki 1800 g, N.Franenki 1017, mashhur ximik Yu.Libixniki 1362 g bo'lganligi aniqlangan². Yana shu ham ma'lumki bir aqli zaif kishining miya og'irligi katta bo'lgan (2kg.ga yaqin bo'lgan). Demak yuqorida gapirilgan fikrlar o'z isbotini topmadi. Fan esa izlanishni davom etmoqda.[2]

Agar qobiliyatlarni o'rganishning hozirgi mavjud yondashuvlarning barcha mumkin bo'lgan variantlarini umumlashtirsak, ularni uchta asosiy turga ajratish mumkin. Birinchi holda, qobiliyatlar barcha mumkin bo'lgan aqliy jarayonlar va holatlarning yig'indisi sifatida tushiniladi. Bu "qobiliyat" atamasining eng keng va qadimgi talqini. Ikkinchi yondashuv nuqtai nazaridan qobiliyatlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishini taminlaydigan umumiy va maxsus bilim, ko'nikma va malakalarining yuqori darajada rivojlanishi tushiniladi. Uchinchidan, "qobiliyat" tushinchasi ma'lum bir shaxsda allaqachon shakllangan bilim, ko'nikma yoki malakalar bilan cheklanmaydi. [1]

Endi qobiliyatning sifat va miqdor xarakteristikasini ko'rib chiqaylik. Qobiliyatning sifat xarakteristikasi haqida gapirilganda kishining qaysi faoliyatda ishlayotgani (konstruktorlik, pedagogik, sport, iqtisod va h.k) qaysi faoliyat turida ishlab o'zini topishi, muvaffaqiyatga erishishi mumkinligi nazarda tutiladi. Qobiliyatlarda bir necha darajalarni ajratish mumkin: iste'dod, talant, donolik.

Iste'dod – insonda qobiliyatlarni rivojlantirishning tabiiy zamini.

Talant -inson qobiliyatlarini rivojlanishining yuqori bosqichi bo'lib, u biror bir foaliyat turida (yuqori muvaffaqiyat) katta yutuqlarga erishishga xizmat qiladi.

Daxolik - insonda biror bir qobiliyatning eng yuqori bosqichi bo'lib, u insonni biror bir faoliyat turida buyuk shaxs qilib ifodalaydi.

Qobiliyatning sifat xarakteristikasi uning miqdor xarakteristikasi bilan uzviy bog'liq. Qobiliyatlarning miqdoriy o'lchami o'ziga xos tarixga ega. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida D.Kettel, L.Termen, B.Skinnerlar insonni o'zi shug'illanayotgan faoliyatiga yaroqliligi, uning qobiliyatlari darajasini aniqlash taklifi bilan chiqadilar . Buning uchun aqiliy istedod testlaridan foydalanish tavsiya etilgan. [2]

Yuqorida aytib o'tganimizdek insonlarda mavjud qobiliyat turlari irsiy ham bo'lishi mumkin . Lekin inson o'z naslida bor bo'lgan qobiliyat usitida mehnat qilmas ekan, u qobiyati taland darajasidan o'tib daxolik darajasiga yetib borishini albatta ko'z oldimizga keltira olmaymiz . Va shu bilan birga inson qaysidir mashg'ulot ustida qiziqish va muhabbat bilan mehnat qilar ekan , bir kuni albatta bu daxolik darajasiga yetishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makalov A.G. “Obshaya psixologiya” .; Piter 2016; [1]
2. M.G.Davletshin , S.M.Tuychieva “Umumiy psixologiya” .; Nizomiy nomidagi davlat pedagogika universiteti 2002-y; [2]
3. P.I.Ivanov , M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati mashriyoti 2018. [3]